XALQ DEPUTATLARI MUZRABOT TUMANI KENGASHINING QARORI

Muzrabot tumani, Onadiyor ko‘chasi 1-uy. 191300, tel.: (+99876) 349-10-67

2024 - yil 5 - yanvar VI-67-3-8-115-K/24 Muzrabot tuman hokimligi

Muzrabot tumanida yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlariga 2024-yil uchun yer solig‘i stavkalarini belgilash haqida.

Tuman soliq inspeksiyasi boshlig‘i F.Xudayorovning O‘zbekistan Respublikasi Soliq kodeksining 429 va 437-moddalariga asosan Muzrabot tumanida yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlariga 2024-yil uchun yer solig‘i stavkalarini tasdiqlash yuzasidan bergan hisobotini inobatga olib va deputatlar tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalardan kelib chiqib, xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI.

1. Tuman soliq inspeksiyasi boshlig‘i F.Xudayorovning O‘zbekistan Respublikasi Soliq kodeksining 429 va 437-moddalariga asosan Muzrabot tumanida yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlariga 2024-yil uchun yer solig‘i stavkalarini tasdiqlash yuzasidan bergan hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i (I.Kushakov), tuman soliq inspeksiyasi boshlig‘i (F.Xudayorov)larga:

- O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonun loyihasida Muzrabot tumani bo‘yicha qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yuridik shaxslarning 1 gektar yeri uchun 26,5 million.so‘m hamda jismoniy shaxslarning 1 kvadrat metr yeri uchun 217,3 so‘m bazaviy soliq stavkalari bo‘yicha taklif kiritilganligi *(yuridik va jismoniy shaxslarning)* qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun

mahallalar kesimida, ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab yer solig‘i stavkasiga 0,5 dan 2,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koyffitsentlarni qo‘llagan holda yer solig‘i stavkalarini belgilashi mumkinligi yuzasidan press klublar va chiqishlarni amalga oshirish va televidinya orqali ommaga taqdim etish;

- belgilangan yer solig‘i stavkalariga (yuridik va jismoniy shaxslarning) qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun, ularning hududlarida joylashgan daha, mavze, mahalla, ko‘cha kesimida 0,7 dan 3,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koyffitsentlarni qo‘llashlari yuzasidan ma’lumotlarni ta’minlab berish;

- xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalari uchun keyingi soliq davriga tasdiqlangan soliq stavkalarini besh kun ichida soliq to‘lovchilarga ma’lumot uchun yetkazilishini ta’minlash;

- yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan mavjud yer maydonlari uchun hisoblangan yer soliqlarini o‘z vaqtida va to‘liq to‘lab borishlarini nazoratga olish;

- yuridik va jismoniy shaxslarga hisoblangan yer solig‘i va undirilgan soliqlari to‘g‘risida xalq deputatlari tuman Kengashiga axborot berib borish vazifasi yuklatilsin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi bilan belgilanadigan soliq stavkalari asosida (yuridik va jismoniy shaxslarning) qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun mahalla kesimida, ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab kamaytiruvchi va oshiruvchi koyffitsientlari 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman hokimligi matbuot xizmati (J.Abdurasulov) va “Muzrabot gazetasi” taxririyati (A.Yo‘ldashev)larga sohada amalga oshirilayotgan ishlarni ommaviy axborot vositalari va internet tarmoqlari orqali keng yoritib borish tavsiya etilsin.

5. Ushbu qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Kengash raisi o'rinbosari **T.Tangirov**

Xalq deputatlari Muzrabot tuman
Kengashining
2024-yil 5-yanvardagi
VI-67-3-8-115-K/24-son qaroriga
1-ilova

Muzrabot tumani bo‘yicha yuridik va jismoniy shaxslarga 2024-yil uchun belgilangan yer solig‘i bazaviy stavkalariga qo‘llaniladigan koeffisentlar

№	Mahalla nomi	Yuridik shaxslar uchun yer solig‘i stavkasi		Jismoniy shaxslar uchun yer solig‘i stavkasi	
		Koeffisent miqdori	Soliq summasi (1 gektar uchun, so‘mda)	Koeffisent miqdori	Soliq summasi (1 kv.m uchun, so‘mda)
1	Alpomish MFY	0,73	26 513 600	0,71	217,3
2	Anorzor MFY	0,73	26 513 600	0,71	217,3
3	At Termiziy MFY	0,75	27 240 000	0,71	217,3
4	Bog‘i eram MFY	0,73	26 513 600	0,71	217,3
5	Bodomzor MFY	0,73	26 513 600	0,71	217,3
6	Buyuk ipak yo‘li MFY	0,73	26 513 600	0,71	217,3
7	Guliston MFY	0,73	26 513 600	0,71	217,3
8	Gulobod MFY	0,73	26 513 600	0,72	218,8
9	Darband MFY	0,73	26 513 600	0,72	218,8
10	Dehqonobod MFY	0,73	26 513 600	0,72	219,4
11	Duoba MFY	0,73	26 513 600	0,72	220,0
12	Do‘stlik MFY	0,73	26 513 600	0,73	223,4
13	Yo'lchi MFY	0,73	26 513 600	0,73	223,4
14	Madaniyat MFY	0,73	26 513 600	0,73	223,4
15	Mehnatabod MFY	0,73	26 513 600	0,73	223,4
16	Mehrigiyox MFY	0,73	26 513 600	0,74	226,4
17	Moxiyat MFY	0,73	26 513 600	0,74	226,4
18	Muzrabot darvoza MFY	0,73	26 513 600	0,74	226,4

19	Mustaqillik MFY	0,73	26 513 600	0,74	226,4
20	Navro'z MFY	0,73	26 513 600	0,74	226,4
21	Nurli xayot MFY	0,75	27 240 000	0,75	229,5
22	Obi xayot MFY	0,73	26 513 600	0,75	228,0
23	Obod turmush MFY	0,73	26 513 600	0,75	229,5
24	Olmazor MFY	0,73	26 513 600	0,75	229,5
25	Oriyat MFY	0,73	26 513 600	0,76	231,0
26	Sopollitepa MFY	0,73	26 513 600	0,76	231,0
27	Tong yulduzi MFY	0,73	26 513 600	0,76	232,6
28	Fayziobod MFY	0,73	26 513 600	0,76	232,6
29	Fidokor MFY	0,73	26 513 600	0,76	232,6
30	Xalq yo‘li MFY	0,75	27 240 000	0,77	234,1
31	Chegarachi MFY	0,73	26 513 600	0,77	234,1
32	Shaffof MFY	0,90	32 688 000	0,83	254,0
33	Yurtim jamoli MFY	0,75	27 240 000	0,77	235,6
34	Yakkatol MFY	0,73	26 513 600	0,78	238,7
35	Yangi diyor MFY	0,73	26 513 600	0,78	238,7
36	Yangi hayot MFY	0,90	32 688 000	0,85	260,1
37	Yangiyer MFY	0,73	26 513 600	0,78	238,7